

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.Mamadaliyeva</b>	
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati .....	208
<b>F.M.Mamadova</b>	
Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari .....	211
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili.....	214
<b>G.H.Axmedova</b>	
Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili.....	219
<b>F.A.Temirova</b>	
Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari .....	222
<b>G.Sh.Zununova</b>	
Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha .....	226
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar .....	231
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash .....	235
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi .....	241
<b>D.A.Xolmatov</b>	
Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari .....	247
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	252
<b>I.I.Soliyev</b>	
OTMLar boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati.....	257
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari .....	264
<b>D.D.Boymirzayeva</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati .....	270
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimediya vositalari asosida rivojlantirish omillari .....	275
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari .....	279
<b>S.Y.Xushvaqtoq, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov</b>	
Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi .....	282
<b>U.A.Buriyeva</b>	
Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi .....	287
<b>N.N.Teshayev</b>	
Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti .....	291
<b>M.Saminjonov</b>	
Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi.....	295

**TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATI MA'NAViy-MAFKURAVIY OMILLARINI MUSTAHKAMLASH AMALIYOTI****ПРАКТИКА КОНСОЛИДАЦИИ ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ФАКТОРА НАЦИОНАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА НА НОВОМ УРОВНЕ ИССЛЕДОВАНИЙ****THE PRACTICE OF CONSOLIDATING THE SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL FACTOR OF THE NATIONAL SOCIETY IN THE NEW LEVEL OF RESEARCH****<sup>1</sup>Teshayev Nutfullo Nasrulloevich**<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti falsafa fanlari nomzodi, dotsent**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyati rivojlanishining ma'naviy omillari va mafkuraviy tamoyillarini mustahkamlanishi amaliyotining jamiyat hayotida namoyon bo'lishi va uning fuqarolar ijtimoiy ongida aks etishining falsafiy jihatlarini tahlil qilgan va muayyan ilmiy xulosalar berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье на новом этапе развития нашей страны рассматриваются философские аспекты практики усиления духовных факторов и идеологических принципов развития гражданского общества в общественной жизни и их отражения в общественном сознании граждан. анализируются граждане и даются конкретные научные выводы.*

**Abstract**

*In this article, at the new stage of the development of our country, the philosophical aspects of the practice of strengthening the spiritual factors and ideological principles of the development of the civil society in the social life and its reflection in the social consciousness of the citizens are analyzed and specific scientific conclusions are given.*

**Kalit so'zlar:** "fuqaro", "fuqarolik jamiyati", "ma'naviy omil", "mafkuraviy tamoyil", "ijtimoiy taraqqiyot", "inson manfaat", "inson kadri", "demokratik jamiyat", "qonun ustuvorligi", "ijtimoiy adolat", "siyosiy madaniyat".

**Ключевые слова:** «гражданин», «гражданское общество», «духовный фактор», «идеологический принцип», «социальное развитие», «человеческий интерес», «человеческий коллектив», «демократическое общество», «верховенство закона», «социальная справедливость». ", "политическая культура.

**Key words:** "citizen", "civil society", "spiritual factor", "ideological principle", "social development", "human interest", "human staff", "democratic society", "rule of law", "social justice", "political culture.

**KIRISH**

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish va uning ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi esa bu jarayonni yanada jadallashtirdi. Aslida bu ikki hujjatni bir-birini taqozo etuvchi, ikkinchisi birinchisining mantiqiy davomi bo'lgan umumiy dasturi majmua sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirgan dolzarb masalalarni hap tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan mazkur strategiyaning mazmun-mohiyati va asosiy yo'nalishlari ana shundan dalolat beradi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida alohida ta'kidlanganidek: «Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortiq bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-kavshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat»[1].

Ayni paytda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifatli va samarasini oshirish shu sohadagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O'z navbatida, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot-vositalari polini kuchaytirishi kabi yo'nalishlar ushbu islohotlar jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraldi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi tarixiy nutqida alohida ta'kidlangan «Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat»– degan fikri ayni hayot haqiqatini ifodalaydi va rivojlanish strategiyasining mazkur sohadagi amaliyotining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Ushbu yo'nalishdagi yangilanishlar mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquqi va nufuzini oshirishni ko'zda tutadigan «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kepak» tamoyilini samarali amalga oshirish imkonini yaratdi.

Bu odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalarning nufuzi va mavqening oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishi demakdir. Nodavlat, jamoat tashkilotlarining ko'payishi, ularning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgani fuqarolik jamiyati asoslari tobora mustahkamlanib, rivojlanayotganidan dalolat beradi. Aynan shunday tashkilotlarning faolligi va mas'uliyatining ortgani, fuqarolarning ongi va tasavvurida, kundalik hayotida ular tobora ko'proq ishtirok etayotgani «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kepak» tamoyilini hayotga tatbiq etishning muhim sharti va shaklidir.

Bugungi qadar ham O'zbekistonda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashni ko'zda tutadigan qonun hujjatlari bop edi. Lekin ular mamlakatimizdagi yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy reallik talablariga, fuqarolarning eng muhim talab va ehtiyojlariga javob bermas edi. Masalan, 2014-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunda murojaatlar bilan qanday ishlash, aholining haqli talablarini qanday hal qilish bo'yicha aniq va samarali mexanizmlar belgilanmagani uchun u to'liq ishlamadi va kutilgan natijani bermadi. Ko'pchilik fuqarolar bunday qonun bopligini bilmas ham edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida esa ana shu murojaatlar bilan nafaqat ishlash va ularni hal etish mexanizmlari, balki bu borada institutsional yangiliklarni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Mamlakatimizning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasi Xalq qabulxonolari va Virtual qabulxonasini tashkil etish, ularning huquqiy maqomi, funksional vazifalari haqidagi huquqiy normalar bu fikrning dalilidir. Xususan, Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni Ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida tuzildi. Bu esa fuqarolarning Xalq qabulxonasiga qilgan hap bir murojaati davlat rahbarining nazorati darajasida ko'pib chiqilishini anglatadi. Shuningdek, Farmon bilan Xalq qabulxonolari nafaqat markazda, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shuningdek, hap bir tuman va shaharda tuzilishi belgilanganligi keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish va xursandchilik bilan kutib olindi.

Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslarga murojaatlarni amalga oshirishda qulayliklar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi ham tuzildi. Unga ko'pa, fuqarolar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali mazkur virtual qabulxonaga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Farmonga muvofiq Xalq qabulxonolari va virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratildi. Farmonga ko'ra, mazkur jarayonlarni nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

devoni tarkibiy tuzilmasida alohida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati ham tashkil etildi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Farmonga muvofiq Xalq qabulxonalarining darajadagi xodimlari O'zbekiston Prezidenti devoni xodimlari hisoblandi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasida ana shunday mustahkam huquqiy baza qaratilgani, hech shubhasiz, fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlariga yangicha mazmun va sifat bag'ishlaydi. Chunki aynan ana shunday qonunchilik poydevori fuqarolar va fuqarolik institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarish sohasida ularning ishtirokini kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Haqiqatan ham, oddiy fuqaro o'z murojaati bilan Xalq qabulxonasi yoki Virtual qabulxonaga murojaat qilib, o'z hayoti yoki jamiyat taraqqiyotidagi muhim bir muammoni ko'tarib chiqsa, uni hal qilishda tashabbuskor bo'lsa, bu undagi faollik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini yanada oshirishga olib keldi.

Yuqori darajada rivojlangan fuqarolik jamiyatining xususiyatlari:

1. Shaxsga (jamoaga yoki individual) tegishli xususiy mulkning mavjudligi.
2. Rivojlangan va tarmoqlangan demokratiyaning turli ijtimoiy guruhlari ko'p qirrali manfaatlarini aks ettiruvchi rivojlangan ko'p qirrali tuzilmaning mavjudligi.
3. Fuqarolik jamiyatining ma'lum yoki boshqa institutlariga qo'shilish vaqtida jamiyat a'zolarini yuqori darajadagi toifalarga bo'lish; psixologik rivojlanish, harakat qilish qobiliyati.
4. Huquq va xalq himoyasi, ya'ni huquqiy davlatni shakllantirish Fuqarolik jamiyati — bu davlat doirasidan tashqarida, uning aralashuviz shakllangan shaxslar o'rtasidagi munosabatlar to'plami. Bu, shuningdek, davlatdan mustaqil ravishda individual kundalik va jamoaviy iste'molchilikni amalga oshiradigan davlat muassasalarining tarmoqlangan tizimidir.

Fuqarolarning kundalik manfaatlarini tengligi va fuqarolik jamiyati sohasidagi ma'lum bir bo'ysunishi mavjudligi sababli uni quyidagicha ifodalash mumkin. Inson hayotining shakllanishini ta'minlaydigan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa narsalar iste'molchilik. Shaxsiy munosabatlar rishtasini tashkil etuvchi o'z-o'zini munosabatlarni qoldiradi. Ushbu iste'molchilik professional iste'molchilik va boshqa uyushmalar kabi jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi. Oilaviy, diniy, axloqiy va boshqa harakatlar ijtimoiy, madaniy munosabatlar, iste'mol, sog'liqni saqlash, bolalarni tarbiyalash, ma'naviy mahorat va e'tiqod, ma'lumot almashish va boshqalarga kiradi. Bu shaxsiy (individual) o'zaro ta'sirining darajasi. Ushbu darajadagi mijozlar oila, cherkov, ta'lim va ilmiy muassasalari, ijodiy uyushmalar, sport jamiyatlari va boshqalar kabi muassasalar darajasiga qoniqish hosil qiladi. 3-shaxsiy munosabatlar siyosiy va madaniy aloqalarning eng yuqori darajasini shakllantiradi.

Bundan xulosa shuki, Bu erkin va mustaqil davlat instituti va alohida shaxslar va jamoalarning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratuvchi shaxslar munosabatlar va ular orqali individual manfaatlar, ehtiyojlar — individual va jamoaviylik uyg'unlikda bo'ladi. Har qanday davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, shuni ta'kidlash mumkinki, har qanday fuqarolik jamiyati negizida ularga xos bo'lgan umumiy g'oyalar va tamoyillar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy erkinlik, mulk turlarining xilma-xilligi, bozor munosabatlari;
- hokimiyatning qonuniyligi va demokratikligi;
- inson va fuqarolarning tabiiy huquq va erkinliklarini tan olish va himoya qilish;
- ijtimoiy sheriklik va milliy totuvlik;
- hokimiyatlar bo'linishi va o'zaro hokimiyat munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat;
- odamlarning qonun va sud oldida tengligi, shaxsni sifatli huquqiy himoya qilish;
- siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik, huquqiy muxolifatning mavjudligi;
- so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;
- davlatning fuqaroning shaxsiy hayotiga, ularning o'zaro burch va majburiyatlariga aralashmaslik;
- odamlarning farovon hayotini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

### XULOSA

Yuqorida qayd etilgan g'oyalar va tamoyillar har qanday fuqarolik jamiyatida mavjud bo'lishi mumkin. Va bu borada shuni ta'kidlash joizki, mazkur tamoyillarning barchasi mamlakatimiz – O'zbekistonda saqlanib qolgan va bu tamoyillar yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlarda o'z aksini topgan.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish va uning ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi esa bu jarayonni yanada Keyingi yilda esa bu jarayon 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida rivojlanmoqda. Ushbu strategiya bugungi davrdagi jamiyat ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasining tadrijiy o'sib bosishi uchun asoslar yaratish borasidagi faoliyatning dasturulamalidir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>
2. Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент — «Ўзбекистон» — 2012.
3. Шавкат Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш- юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент — «Ўзбекистон»-2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи//<http://uz24.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutqi>.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 – жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2022.
7. Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. Т.: Маънавият, 2016.
8. Тешаев Н. Н. Фуқаролик жамиятининг маънавий асослари. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya. Navoiy, 2022 yil, 22-noyabr,